Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга	1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо қизи	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца	1029
Мухаммадиева Лола Атамуратовна	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Voxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxonada darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз қизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий.....	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики.....	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений.....	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах СНГ: проблемы и перспективы.....	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики.....	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
“Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari”	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Budjetlashtirish bo'yicha tashkiliy va uslubiy yondashuvlar tahlili.	1195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	



XORIJIY DAVLATLARDA BOYLIK SOLIG'I VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Ruziyev G'anisher Usarovich

mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0008-5695-4846

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlarda boylik solig'ining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu soliqqa oid yondashuvlar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boylik, soliq, boylik solig'i, adolatlilik tamoyili, byudjet, ijtimoiy himoya.

Abstract: The article examines the economic and social significance of the wealth tax in foreign countries and outlines its distinctive characteristics. Based on the analysis, relevant conclusions and recommendations have been proposed.

Key words: wealth, tax, wealth tax, principle of fairness, budget, social protection.

Аннотация: В статье рассматриваются экономическое и социальное значение налога на богатство в зарубежных странах, а также его характерные особенности. На основе проведённого анализа представлены соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: богатство, налог, налог на богатство, принцип справедливости, бюджет, социальная защита.

KIRISH

Keyingi yillarda norasmiy bandlik va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalalari bilan bir qatorda, aholining daromadlari va turmush darajasini hisobga olgan holda soliq yukini maqbul taqsimlashni ta'minlashga yordam beradigan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni butun dunyo mamlakatlari uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ko'pgina davlatlarda ushbu maqsadlarga erishish yo'lida boylik solig'i yoki hashamatli soliqni joriy etish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Hashamat va boylik soliqlari xorijiy mamlakatlar soliq tizimida alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Yevropada hashamat solig'i XVII–XVIII asrlarda turli shakllarda vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda ham ko'plab mamlakatlarda – xususan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Italiya, Gretsiya va boshqalarda – saqlanib qolgan.

Biroq bugungi kunda boylik yoki hashamatli soliq qanday shaklda bo'lishi, soliqqa tortish predmeti nima bo'lishi kerakligi, fuqarolarning qaysi toifalari uni to'lashi lozimligi hamda ushbu soliqlar qanday maqsadlarga xizmat qilishi zarurligi borasida yagona yondashuv mavjud emas.

Har bir mamlakat ichki bozor sharoiti, ijtimoiy tabaqalanish darajasi, aholining farovonlik holati, iqtisodiyotning rivojlanish bosqichi va boshqa omillarni inobatga olgan holda bu masalalarni o'ziga xos tarzda hal etishi lozim.

Shu munosabat bilan, boylik va hashamat soliqlari bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini, ularning o'ziga xos jihatlarni hamda soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi afzalliklarini o'rganish bugungi kunda ilmiy izlanishlarni talab etuvchi dolzarb yo'nalishlardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Iqtisodiy adabiyotlarda va olimlarning ilmiy qarashlarida fuqarolar tomonidan daromad darajasiga qarab soliq to'lash, boylik solig'i hamda hashamat uchun soliq kabi masalalar turlicha yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Ko'plab iqtisodchi olimlar ushbu mavzuda o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan.

Jumladan, boylik solig'iga doir dastlabki qarashlardan biri sifatida Uilyam Petti shunday yozadi: "Soliq qanchalik katta bo'lmasin, agar uning yuki barchaga mutanosib tushsa, hech kim u sababli o'z boyligini



yo'qotmaydi"¹. Uning fikricha, xususiy mulkni xavfsiz saqlashning yagona yo'li – unga soliq to'lashdir. Fuqarolarning xususiy mulki qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha ko'p soliq to'lashi kerak. Bu faraz bevosita boylik solig'i konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

Buyuk ingliz iqtisodchisi Adam Smit ham soliqqa tortishning to'rtta asosiy tamoyilidan biri – adolatlilik tamoyili – doirasida "Har bir fuqaro o'z boyligiga qarab soliq to'lashi shart", deb ta'kidlaydi².

Berklilik iqtisodchilari – Emmanuel Saez va Gabriyel Zukman – 2020-yilda aholining turli toifalaridagi soliq yukini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarida, boylarga nisbatan yuqori soliqqa tortish zarurligi va bu orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish masalasini ilgari suradilar. Ularning fikricha, jamiyatdagi boylar kuchliroq siyosiy va iqtisodiy qudratga ega bo'lib, bu holat ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Shuning uchun progressiv soliqqa tortish – adolatni ta'minlash vositasi sifatida qaralishi lozim.³

Saez va Zukmanning xulosalarini fransuz iqtisodchisi Tomas Piketti ham qo'llab-quvvatlaydi. U 2020-yildagi tadqiqotida boylik va hokimiyatning haddan tashqari konsentratsiyasi zamonaviy iqtisodiyot talablari bilan mos kelmasligini ta'kidlab, ekologik muammolarni hal qilishda bu omil jiddiy to'siq bo'lishini qayd etadi. Pikettning fikricha, XXI asr iqtisodiyoti hokimiyat, boylik va bilimlarning aylanishiga asoslangan bo'lishi lozim.

Shuningdek, Tomas Piketti 2014-yilda chop etilgan "Yigirma birinchi asrdagi kapital" (Capital in the Twenty-First Century) nomli mashhur asarida global progressiv boylik soliqlari tizimini taklif qiladi. Bu tizim yordamida tengsizlikni kamaytirish hamda oz sonli guruhlar qo'lida to'plangan boylik konsentratsiyasining oldini olish mumkinligini asoslaydi.⁴

Islom iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan yondashuv esa iqtisodchi Muhammad Akram Xon tomonidan ilgari surilgan. U 2021-yilda ta'kidlaganidek, islom iqtisodiyotining "asosiy konsepsiyasi" – zakot, boylik va daromad solig'i bilan bir qatorda, "ribo nazariyasi"ni ham qamrab oladi⁵.

Yuqorida keltirilgan olimlar qarashlarida, asosan, yuqori daromadga ega bo'lgan shaxslarni progressiv soliqqa tortish zarurligi va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashish masalasi ustuvor o'rin egallaydi. Biroq, boylik solig'ining iqtisodiy mexanizmi, qo'llanish shartlari va maqsadli natijalari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan deb hisoblaymiz.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, boylik yoki hashamat solig'ini joriy etish zarurati, ularning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan holda, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda ushbu ilg'or tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalar, amaliy materiallar hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada yuritish va tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boylik solig'i – "keng soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan sof boylikka egalik uchun olinadigan soliq" hisoblanadi. Keng soliqqa tortish bazasi deganda jismoniy shaxslarga tegishli aktivlarning ko'plab turlari, jumladan, naqd pul, bank depozitlari, mol-mulk va boshqa moliyaviy vositalar asosida soliqqa tortish tushuniladi.

Sof boylik solig'i – bu jismoniy shaxsning qarzlari hisobga olinmagan holda, uning umumiy boyligidan olinadigan takroriy soliq turi hisoblanadi. Ushbu tushuncha ko'chmas mulk solig'iga o'xshash bo'lsa-da, faqatgina ko'chmas mulk emas, balki jismoniy shaxsga tegishli barcha aktivlarni qamrab oladi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD)ga a'zo Yevropa mamlakatlaridan uchta, ya'ni Norvegiya, Ispaniya va Shveysariya sof boylik solig'ini amaliyotga tatbiq qilgan. Fransiya va Italiya esa individual aktivlarga boylik solig'ini qo'llaydi, biroq bu soliqlar shaxsning sof boyligiga emas, faqat ayrim aktiv turlariga nisbatan undiriladi.

Hozirgi vaqtda Shveysariya, Norvegiya va Ispaniya o'zlarining yuqori daromadli aholisidan sof boylik solig'i shaklida soliq tushumlarini yig'adigan mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu munosabat bilan, quyida ushbu mamlakatlar tajribasida boylik solig'ining joriy etilishi, shakllanishi va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi (1-rasm).


1 Петти В., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Дж., Фридман М. Классика экономической мысли: Сочинения.-М.:изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000.-896 с.

2 A Smit. Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish. M., 1962. S. 588–603

3 How to Get \$1 Trillion from 1000 Billionaires: Tax their Gains Now* Emmanuel Saez and Gabriel Zucman University of California Berkeley April 14, 2021

4 CAPITAL IN THE TWENTY-FIRST CENTURY Thomas Piketty Translated by Arthur Goldhammer The Belknap Press of Harvard University Press CAMBRIDGE, MASSACHUSETTS LONDON, ENGLAND 2014

5 [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Islamskaya_ekonomika/ Islam i ekonomika](https://ru.wikipedia.org/wiki/Islamskaya_ekonomika/)



1-rasm. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo yevropa mamlakatlarida sof boylik solig'i, 2022 yil⁶

Eslatma: Sof boylik solig'i jismoniy shaxsga tegishli barcha boyliklardan (qarzlarni hisobga olmaganda) undirilsa-da, individual aktivlar bo'yicha boylik solig'i jismoniy shaxs boyligining faqat bir qismini (masalan, moliyaviy aktivlar) qoplaydi.

Boylik solig'i birinchi marta Shveysariyada gelvetizm davrida (1789–1803) joriy etilgan. Shveysariya rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar, odatda, butun dunyo bo'ylab boylik solig'iga tortiladi. Asosan barcha aktivlar toifalari soliqqa tortish bazasiga kiritiladi. Ular qatoriga ko'chmas mulk (shu jumladan, xususiy turar-joylar), har xil turdagi qimmatli qog'ozlar (xususan, xususiy kompaniyalar aksiyalari), ko'char aktivlar (masalan, san'at asarlari, zargarlik buyumlari, transport vositalari va boshqalar) kiradi.

Shuningdek, ba'zi aktivlar, jumladan, shaxsiy uy-ro'zg'or buyumlari, pensiya jamg'armalari, shaxsiy pensiya tizimlariga kiritilgan sarmoyalar boylik solig'idan ozod qilinadi.

Kantonal boylik solig'i sof asosda hisoblanadi, ya'ni soliq to'lovchi o'zining shaxsiy majburiyatlarini soliq bazasidan chegirib tashlashi mumkin. Kantonlarga qarab 70 000–200 000 Shveysariya franki miqdorida imtiyozlar qo'llaniladi. Er-xotinlar alohida soliq subyekti bo'lishiga qaramay, boylik solig'i stavkasini aniqlashda ularning umumiy boyligi hisobga olinadi. Ko'pchilik kantonlarda progressiv stavkalar mavjud bo'lsa-da, har doim ham turmush qurganlarga qulay sharoit taqdim etilmaydi. Masalan, Jeneva kantonida yolg'iz va turmush qurganlar uchun stavkalar o'rtasida farq yo'q.

Voyaga etmagan bolalarning sof aktivlari ota-onaning boylik solig'i bazasiga qo'shiladi. Agar ota-onalar alohida bo'lsa, bolaga qonuniy vasiylik huquqiga ega bo'lgan ota-onaning hisobiga yoziladi. Agar vasiylik ikkala ota-ona zimmasida bo'lsa, boylik bola bilan birga yashaydigan ota-onaga tegishli deb qaraladi. Bola nomidan to'lanadigan soliq uning o'z boyligidan moliyalashtirilishi mumkin.

Ko'pgina kantonlarda munitsipalitetlar boylik solig'ini kanton soliqqa ustama sifatida undiradi. Shu boisdan boylik solig'i stavkalari kantonlar orasida, hatto bir kanton ichidagi turli munitsipalitetlar kesimida ham farq qiladi.

Masalan:

Jeneva kantoni: maksimal stavka – 1 %

Syurix kantoni: maksimal stavka – 0,7 %

Nidvalden kantoni: eng past stavka – 0,0665 %

Haqiqiy stavka multiplikatorlarni hisobga olgan holda 0,1 % atrofida bo'ladi.

6 EY, "Worldwide Estate and Heritage Tax Guide 2022" va Bloomberg Tax, "Country Guides".



Norvegiya boylik solig'ini undiruvchi davlatlardan biri bo'lib, bu yerda 1,7 million NOK (taxminan 180 000 yevro yoki 190 000 AQSH dollari) dan ortiq sof boylikdan 0,95 % soliq undiriladi. Uning 0,7 % munitsipalitetlarga, 0,25 % esa markaziy hukumatga to'g'ri keladi. Ushbu soliq tizimi ilk bor 1892–yilda joriy etilgan.

20 million NOK (2,3 million dollar) dan ortiq boylikdan 1,1 % stavkada soliq olinadi.

Munitsipal boylik solig'i stavkasi: 0,7 %

Davlat boylik solig'i stavkasi: 0,25 % → bu stavkalar 1,7 million NOK (yolg'izlar) va 3,4 million NOK (er-xotinlar) darajasidan oshgan boylikka nisbatan hisoblanadi.

Norvegiya hukumati ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022–yildan boshlab boylik solig'i bazasini qayta ko'rib chiqmoqda:

Aksiyalar va asosiy vositalar qiymatini baholash 50 % gacha kamaytirilishi taklif etilgan.

Soliqdan ozod etilgan nafaqa miqdori 1,6 million NOK gacha oshirilmoqda.

Dam olish maskanlari, ikkinchi darajali uy-joylar va baliqchilik litsenziyalari qayta baholanmoqda.

Ispaniya davlatida ham boylik solig'i o'ziga xos tarzda undiriladi. Jumladan, mazkur davlatda sof boylik solig'i 700 000 yevrodan (taxminan 761 000 AQSH dollari; ba'zi hududlarda pastroq) oshgan boylik aksiyalariga nisbatan 0,2 % dan 3,75 % gacha bo'lgan progressiv stavkada qo'llaniladi. Ushbu stavkalar Ispaniyaning avtonom hududlari bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi (masalan, Madrid 100 % imtiyozni taklif etadi).

Ispaniya rezidentlari butun dunyo bo'ylab aktivlari bo'yicha soliqqa tortiladi, norezidentlar esa faqat Ispaniyada joylashgan aktivlar uchun soliq to'laydi. Soliqdan ozod etilgan minimal miqdor 700 000 yevro, shuningdek, odatiy turar-joylar uchun 300 000 yevrogacha imtiyozlar mavjud. Avtonom hamjamiyatlar soliqdan ozod qilingan miqdorni mustaqil belgilashi mumkin. Agar bunday miqdor belgilanmasa, u holda Ispaniya umumiy qonunchiligida ko'zda tutilgan 700 000 yevro amal qiladi. Norezidentlar uchun esa faqat markaziy qonun normalari amal qiladi.

Soliq to'lovchilarning boyligi (soliqdan ozod etilgan yoki etilmagan) 2 million yevrodan oshgan taqdirda, ular boylik solig'i deklaratsiyasini topshirishlari majburiy hisoblanadi.

Ispaniyada boylikdan soliqqa tortish turli yo'llar orqali amalga oshiriladi:

mulk solig'i,

mulkni o'tkazish solig'i,

kapital daromad solig'i,

meros va hadya solig'i.

Bu soliqlar mintaqaviy yoki mahalliy darajada undiriladi va ularning stavkalari farqlidir. Boylik solig'i stavkasi ayrim hollarda 3,5 % gacha, 700 000–1 000 000 yevro miqdorida esa soliqsiz imtiyozlar bilan belgilangan. Meros va hadya solig'i stavkalari 1 % dan 7 % gacha, ayrim holatlarda esa qo'shimcha imtiyozlar ham taqdim etiladi⁷.

Fransiya 2018–yilda sof boylik solig'ini bekor qildi va uni ko'chmas mulk solig'i bilan almashtirdi. Endilikda Fransiya soliq rezidentlari:

dunyo bo'ylab sof ko'chmas mulk aktivlari 1,3 million yevrodan yuqori bo'lsa,

yoki Fransiyada joylashgan aktivlari ushbu miqdorni tashkil etsa,

soliq to'lash majburiyatiga ega. Soliq stavkasi 1,5 % gacha bo'lishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, boylik solig'i yillik yoki bir martalik shaklda joriy etilishi mumkin. Biroq bu soliq turini e'lon qilish uni amalda joriy qilishdan ko'ra osonroq kechadi. Mutaxassislarning fikricha, boylik solig'ini joriy etishning murakkabligi uning innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto ba'zan konstitutsiyaviy normalarga zid kelishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar instituti prezidenti Klemens Fuestning modellashtirishga asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra, boylik solig'i joriy etilganda sakkiz yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmi boylik solig'isiz holatga nisbatan 6,2 % ga kamayadi. "Oilaviy tadbirkorlik" jamg'armasi rahbari Rayner Kirchdörfer esa boylik solig'i kapitalning xorijga chiqib ketishiga turtki berishini va ayniqsa oilaviy biznesga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu turdagi soliq Germaniya iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlab kelayotgan oilaviy korxonalar faoliyatiga xavf soladi.

Shu bilan birga, boshqa qarashlarga ko'ra, boylik solig'i boylik tengsizligini kamaytirish, iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash va pandemiyadan keyingi tiklanishga hissa qo'shish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Ayniqsa, COVID–19 pandemiyasi davrida aholining daromadlari orasida sezilarli tabaqalanish yuzaga kelgani bois, bu soliq turining joriy etilishi ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi omil sifatida ko'rilmoqda.

Jahon banki 2021–yilda bergan hisobotida pandemiya davrida global tengsizlikning chuqurlashganini, vaksinatsiya imkoniyatlari, daromad yo'qotishlari va ta'limdagi tafovutlar keskinlashganini qayd etgan va 2020–yilni "tengsizliklar pandemiyasi" deb atagan. Unga ko'ra, dunyo bo'yicha o'ta qashshoqlikda yashayotganlar soni

⁷ Wealth taxation in Switzerland Jean-Blaise Eckert, Lenz & Staehelin, Switzerland Lukas Aebi, Lenz & Staehelin, Switzerland Wealth Tax Commission Background Paper no. 133 Published by the Wealth Tax Commission



pandemiya sababli qariyb 100 million kishiga yetgan. Shunga binoan, ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, agar boylik tengsizligi boylik solig'ini joriy etish uchun asos bo'lsa, Janubiy Afrikada bunday soliq allaqachon tatbiq qilinishi lozim edi.

Bu mamlakatda eng boy va eng kambag'al qatlamlar o'rtasidagi tafovut nihoyatda katta bo'lib, COVID–19 pandemiyasi bu tafovutni yanada chuqurlashtirgan. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, boylik solig'i joriy etilganda 160 milliard rand (taxminan 10,7 milliard AQSH dollari) miqdorida mablag' yig'ilishi mumkin, bu esa davlat qarzlarini qisqartirishga yo'naltiriladi. Bu sharoitda aynan bir martalik boylik solig'i eng maqsadga muvofiq yechim bo'lib ko'rinadi.

2021–yil 24–iyun kuni BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish Yevroparlamentdagi chiqishida pandemiya oqibatida yuz millionlab odam qashshoqlik yoqasiga kelib qolganini ta'kidlab, dunyo davlatlarini pandemiya fonida boyligi keskin ortgan eng badavlat shaxslardan birdamlik solig'i yoki boylik solig'ini undirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishga chaqirdi. Unga ko'ra, boylardan undirilgan mablag'lar ijtimoiy-iqtisodiy tiklanish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi lozim. Shuningdek, u sayyoramiz aholisining yarmi zarur tibbiy xizmatlardan foydalanishga qurbi yetmasligini afsus bilan qayd etgan.

Shu munosabat bilan, pandemiya davrida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida Argentina davlati o'zining eng boy fuqarolariga bir martalik soliq joriy etgan bo'lsa, Avstraliyaning Yashillar partiyasi 100 nafar eng boy avstraliyalikka 6 % miqdorida boylik solig'i solishni va bu orqali kelgusi o'n yil ichida 40 milliard dollar yig'ishni taklif qilmoqda. Ushbu mablag'larni stomatologik xizmatlar, bepul davlat maktablari va yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirish rejalashtirilgan.

Xalqaro Oxfam uyushmasi esa 2024–yil 15–yanvarda e'lon qilgan yillik hisobotida 5 million dollardan ortiq aktivlarga ega shaxslar uchun 2 %, 50 million dollardan ortiq aktivlar uchun 3 %, 1 milliard dollardan ortiq aktivlar uchun esa 5 % miqdorida qo'shimcha boylik solig'i joriy etishni taklif qilgan. Bu mablag'lar iqlimni muhofaza qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, boylik solig'ining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, bugungi kunda ushbu soliqni joriy qilish zarurati, soliqqa tortish bazasi qanday boylik yoki daromad turlaridan iborat bo'lishi, fuqarolarning qaysi toifalari uni to'lashi kerakligi, qanday stavkalarda va qanday iqtisodiy-huquqiy asoslar asosida belgilanishi hamda undirilgan soliq tushumlari qanday maqsadlarga yo'naltirilishi kerakligi borasida yagona yondashuv mavjud emas. Shu bois, har bir mamlakat mazkur masalalarni o'zining ichki bozor sharoitlari, ijtimoiy tabaqalanish darajasi, aholining turmush sifati, iqtisodiyotning holati va boshqa omillarni chuqur tahlil qilgan holda hal etishi lozim.

Bizning fikrimizcha, xorijiy davlatlar tajribalariga tayangan holda, O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Egaligida ikki yoki undan ortiq ko'chmas mulk mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarning ikkinchi va undan keyingi ob'ektlariga nisbatan boylik solig'i stavkalariga oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanilishi lozim. Bunda undirilgan qo'shimcha soliq tushumlari hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy tiklanish, infratuzilmani rivojlantirish hamda ijtimoiy yordam loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Tajriba sifatida qiymati bazaviy hisoblash miqdorining, masalan, 3 000 baravaridan yuqori bo'lgan, xorijda ishlab chiqarilgan hashamatli avtotransport vositalarini xarid qilayotgan jismoniy shaxslarga nisbatan bir martalik hashamat solig'ini joriy qilish mumkin. Ushbu soliqdan tushadigan mablag'lar davlat tomonidan og'ir va surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarga xorijiy mutaxassislarini jalb qilish, chet elda ishlab chiqarilgan yuqori samarali dori-darmonlar bilan ta'minlash, qimmat jarrohlik amaliyotlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan ijtimoiy tibbiy jamg'armalarni yaratish uchun daromad manbai sifatida ishlatilishi kerak.

Jismoniy shaxslar tomonidan daromadlarni yashirish va soliqlardan qochish holatlarini kamaytirish, adolatli soliqqa tortish tizimini joriy etish, daromadlar tengsizligini qisqartirish hamda ijtimoiy himoya siyosatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida aholining barcha qatlamlari uchun mulk va daromadlarni majburiy deklaratsiyalash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish lozim. Ushbu tizim fuqarolarning moliyaviy javobgarligini oshiradi va davlat moliyasining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Петти В., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Дж., Фридман М. Классика экономической мысли: Сочинения. – М.: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. – 896 с.
2. A. Smit. Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish. – M., 1962. – B. 588–603.
3. Wealth Taxation in Switzerland / Jean-Blaise Eckert, Lukas Aebi. – Lenz & Staehelin, Switzerland. – Wealth Tax Commission Background Paper No. 133.
4. EY. "Worldwide Estate and Inheritance Tax Guide 2022" va Bloomberg Tax. "Country Guides".



5. Piketty, T. Capital in the Twenty-First Century. – Translated by Arthur Goldhammer. – The Belknap Press of Harvard University Press, Cambridge (MA), London (England), 2014.
6. Saez, E., Zucman, G. How to Get \$1 Trillion from 1000 Billionaires: Tax Their Gains Now. – University of California, Berkeley, 14 April 2021.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Islamskaya_ekonomika / Islam i ekonomika
8. <https://www.oxfam.org/en/research/inequality-inc> – Inequality Inc., publication date: 15 January 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
